

BUXORO AMIRLIGI TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI

АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ПО ИСТОРИИ ЭМИРАТА БУХАРА

ANALYSIS OF SOURCES ON THE HISTORY OF THE BUKHARA EMIRATE

Xaydarova Ro‘zixon Abdurasul qizi

Qo‘qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: Xaydarovarozi5@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yozma manbalar, tarixiy asarlar, arxiv hujjatlari va sayyohlar xotiralari tahlil qilinadi. Shuningdek, manbalarning tarixiy voqealarni yoritishdagi o‘rni, ishonchliligi va ilmiy ahamiyati yoritib beriladi. Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini tadqiq etishda foydalanilgan asosiy manbalar haqida ma’lumot beriladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются письменные источники, исторические труды, архивные документы и воспоминания туристов, имеющие важное значение для изучения истории Бухарского эмирата. Также освещается роль, достоверность и научная значимость источников при освещении исторических событий. Представлена информация об основных источниках, используемых при изучении политической, экономической и культурной жизни Бухарского эмирата.*

Abstract: *This article analyzes written sources, historical works, archival documents and memoirs of tourists that are important in studying the history of the Bukhara Emirate. It also highlights the role, reliability and scientific significance of the sources in covering historical events. Information is provided about the main sources used in studying the political, economic and cultural life of the Bukhara Emirate.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro amirligi, tarixiy manbalar, yozma manbalar, arxiv hujjatlari, tarixshunoslik, qo‘lyozmalar, Muhammad Hakimxon, Ahmad Donish, Markaziy Osiyo tarixi, amirlik boshqaruvi, sayyohlar xotiralari, manbashunoslik.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, исторические источники, письменные источники, архивные документы, историография, рукописи, Мухаммад Хакимхан, Ахмад Дониш, история Центральной Азии, администрация эмирата, воспоминания путешественников, исследование источников.*

Keywords: *Bukhara Emirate, historical sources, written sources, archival documents, historiography, manuscripts, Muhammad Hakimkhan, Ahmad Donish, history of Central Asia, emirate administration, travelers' memories, source studies.*

Ma'lum bir davr tarixini yoritib berishda, albatta, qo'lyozma asarlarga tayanilgan xolda fikr bildiriladi. Buxoro xonligi tarixi, davlat boshqaruvi va harbiy sohasi haqida ma'lumotlarni Buxoro tarixiga bag'ishlab yozilgan asarlardan topishimiz mumkin. Ushbu manbalarda Buxoro xonligida XVIII asr o'rtalarida yuz bergan siyosiy voqealarda mang'it urug'i vakillarini Buxoro xonligi taxtiga olib chiqdi. Buxoro amirligi tarixiga oid yozma manbalar ichida "Qushbegi arxivi" hujjatlari, "Tarixi salotini mang'itiya", "Tuhfai shohiy", "Dostoni amironi mang'it", "Tarixi amiri Haydar", "Gulshan al-muluk", "Risolai muxtasari az tarixi salotini xonadoni mang'itiya" kabi mahalliy tillarda yozilgan asarlar bilan bir qatorda rus tarixchilaridan E.K.Meyndorf tomonidan 1820-yilda yozilgan "Orenburgdan Buxoroga sayohat", 1833-yilda tatar mullosi Mirzo Ja'far nomi bilan 4 oy Buxoroda yashagan P.I.Demezoning "Buxoro xonligi haqida qaydlar", 1841 yilda Butenov elchiligi tarkibida Buxoroga tashrif buyurgan I.Xanikovning "Buxoro xonligi ta'rifi" kabi asarlarini keltirib o'tish mumkin. Shuningdek, ingliz josuslik hizmati vakillari Mir Izatullo va A.Berns tomonidan hamda A.Vamberi tomonidan yozilgan asarlar ham Buxoro amirligining XIX asr birinchi yarmi tarixiga oid muhim manbalar qatoridan o'rin olgan.[1]

Buxoro tarixini sulolaviy xronika yo'nalishida tasvirlab berishni asosiy maqsad qilgan tarixchilardan biri Mirzo Somiy (1838-1907) hisoblanadi. Mirzo Somiyning yirik tarixchiligini tasdiqlovchi ikki tarixiy asar – "Tuhfai shohiy" va "Tarixi salotini mang'itiya" fanda bir tarixiy asarning rasmiy va norasmiy variantlari, deb e'tirof etiladi. "Tuhfai shohiy" saroy tarixchiligi an'analari usulida, ya'ni hukmdorlarni maqtab yozilgan bo'lsa, "Tarixi salotini mang'itiya" daular faoliyatiga ba'zan keskin munosabat ifoda etiladi. Masalan, muallifning birinchi tarixiy-adabiy asari "Daxmai shohon" da amir Nasrullonning qattiqqo'lligi va zolimligi oshkora bayon qilingan.

"Tuhfai shohiy" hajm jihatdan "Tarixi salotini mang'itiya" dan kattaroq "Tarixi salotini mang'itiya" asarida Rossiya imperiyasi istilolari masalasiga keng o'rin berilgan. Ushbu mavzuga Mirzo Somiydan tashqari Ahmad Donish, Mirza Salimbek, Sharifjon Maxdum, Qozi Baqoxo'ja kabi buxorolik muarrixlar qo'l urishgan. Bular ichida masalani atroflicha yoritib bergan eng sara muallif Mirzo Somiydir. Uning "Tarixi salotini mang'itiya" asari faktlarga boyligi bilan yuqorida tilga olingan mualliflarning asarlaridan farq qiladi. Asar uch qismdan iborat: 1. Asarning umumiy kompilyasiya qismi va amir Muzaffarning hokimiyatga kelishi. 2. Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi janglar va Buxoro amirligiga qarashli ayrim hududlarning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi. 3. Mirzo Somiy

Amir Muzaffar iltifotlaridan bahramand bo‘lgan bo‘lsa-da, uning davrida ildiz otgan badxulqlik, amir fe‘l-atvoridagi kibru havo, adolatsizlik tanqid ostiga olinadi va ushbu illatlar davlatni halokat yoqasiga olib keldi, degan xulosaga kelinadi. Buxoro davlati inqirozining tashqi omili sifatida mamlakatning Rossiya imperiyasi ta‘siriga tushib qolishi hisoblanadi. Mirzo Somiy Rossiya imperiyasining tashqi siyosatiga nisbatan keskin pozitsiyada turgan. 1904-1905yillarda girus-yaponurushida Rossiyaning mag‘lubiyatini qo‘llab quvvatlagan. Rossiya hukumati tomonidan harbiylarg to‘lanadigan maosh miqdorining yuqoriligi rus xalqi ahvolini og‘irlashtirdi, deb hisoblaydi.[2]

Buxoro xonligida amirlarning kutubxonalariga ko‘proq e‘tibor berilardi.

Jo‘rabek va Qushbegi Ostonaqulning ma‘lumot berishlaricha, kutubxonalarda qo‘lyozma asarlar ko‘p miqdorda saqlanardi. Amir kutubxonasida xitoy, uyg‘ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi kitoblar ham bor edi. Kutubxona boshqa xazinalardan alohida saqlanardi. Bu kitob boyligiga maxsus saroy amaldori bo‘lgan «kitobdor» boshchilik qilgan. Bu yerda kufiycha yozuvda chiroyli xat bilan bitilgan qadimgi qo‘lyozmalar (ularning orasida rasmlar ham ishlangan edi), ayrim urug‘larning shajaralarini to‘liq aks ettiruvchi, hatto kelib chiqishi Iskandar Zulqarnaynga borib taqaladigan urug‘larning tarixiga oid adabiyotlar ham bor edi.[3]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligi tarixiga oid manbalar amirlikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Yozma manbalar, arxiv hujjatlari, tarixiy asarlar hamda sayyohlar xotiralari o‘sha davr voqealarini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi. Ushbu manbalarni qiyosiy tahlil qilish tarixiy haqiqatni yanada aniqroq tiklash imkonini beradi. Buxoro amirligi tarixiga oid manbalarni chuqur o‘rganish nafaqat o‘tmishimizni anglashga, balki O‘zbekiston tarixshunosligini boyitishga ham muhim hissa qo‘shadi. Shu sababli mazkur manbalarni izchil tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kutubxonashunoslik Ishining Nazariyasi va tarixi. I. Kormilisin, M. Rasulov, S.Davlatov. Toshkent-2003.
2. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/44528/44860/51760>
3. <https://docx.uz/document/buxoro-amirligi-davri-tarixiga-oid-manbalar-8623b10c?lang=uz>